

SHASHMAQOM XUSUSAN MAQOM IJROCHILIGIDAGI MURAKKAB JARAYONLAR



Abdunabi Ibragimov

“Maqom xonandaligi” kafedrası professori, O‘zbekiston xalq hofizi

Yunus Rajabiy nomidagi O‘zbek milliy musiqa san’ati instituti

DOI: <https://doi.org/10.37547/ssa-V5-05-04>

Annotatsiya: Ushbu maqolada musiqa merosimizning mohir bastakorlar va hofiz sozandalarning mehnati va maqom ijrochiligida murakkab jarayonlar haqida kengroq yoritib berilgan. Jo‘rovozlik va ansamblning farqlari, yosh avlodga ijro imkoniyatlarining nafas bilan bog‘liqligi muhim ekanligi haqida so‘z boradi.

Kalit so‘zlar: Segoh, chorgoh, ansambl, maqom, ushshoq, hofiz, dugoh, usul, musiqa, ashula.

Аннотация: В данной статье подробно освещается музыкальное наследие, труд талантливых композиторов, певцов и исполнителей, а также сложные процессы в исполнении макома. Рассматриваются различия между «жўровозлик» и ансамблем, а также подчеркивается важность связи дыхания с исполнительскими возможностями молодого поколения.

Ключевые слова: Сегох, чоргох, ансамбль, маком, ушшоқ, хафиз, дугох, усул, музыка, ашула.

Abstract: This article provides a broader insight into the complex processes involved in the work of skilled composers and vocal artists in our musical heritage and maqom performance. It discusses the differences between jo‘rovozlik and ensemble, emphasizing the importance of the connection between performance opportunities for the younger generation and breath.

Keywords: Segoh, chorgoh, ensemble, maqom, ushshoq, vocalist, dugoh, method, music, song.

Musiqa merosimizning gultoji hisoblanmish maqom san'ati zabardast ijod ahlining uzluksiz izlanishlari, rivojlantirishlari zahirida hosil bo‘lgan umrboqiy navolar desak o‘rinli bo‘ladi. Atoqli hofiz-u, sozandalarimizning ijrochilik bilan bastakorlik faoliyatlari davomida maqom ashula va cholg‘u yo‘llari rivojlanib turkum asarlar shakliga kelganligi ko‘pchilikka ma‘lum.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 17-noyabrdagi «O‘zbek milliy maqom san’atini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi PQ- 3391-son Qarorida: - «Xalqimiz madaniy merosining ajralmas qismi bo‘lgan milliy maqom san'ati o‘zining qadimiy tarixi, teran falsafiy ildizlari, betakror badiiy uslubi va boy ijodiy an‘analari bilan ma‘naviy hayotimizda alohida muhim o‘rin egallaydi» .

Asrlar davomida ulug‘ shoir va olimlar, mohir bastakorlar, hofiz va sozandalarning mashaqqatli mehnati va fidoiyligi, ijodiy tafakkuri bilan sayqal topib kelayotgan ushbu noyob san’at nafaqat yurtimiz va sharq mamlakatlarida, balki dunyo miqyosida katta shuhrat va e’tibor qozongan. Maqom san’atining gultoji bo‘lgan «Shashmaqom YuNESKO tomonidan insoniyatning nomoddiy madaniy merosi sifatida e’tirof etilgani hamda uning Reprezentativ ro‘yxatiga kiritilgani buning yaqqol tasdig‘idir» - deb ta’kidlanadi.

Maqom ijrochiligi murakkab jarayon hisoblanadi. Shu bois ijrochilik amaliyotida yakkaxonlikdan toki jamoaviy - ansambl bo‘lib ijro etish shakllari yuzaga kelgan. Ansambl bo‘lib

ijro etishning musiqa ijrochiligi, qolaversa, xalqlarning musiqiy an'analaridagi ijrochilik mezonlari o'ziga xosdir. Har bir xalqning o'z milliy musiqasi va milliy qadriyatlari negizida ansamblli ijro yo'llari shakllangan. Davrlar osha madaniyatimiz rivojlanishi negizida esa o'zbek maqom ijrochiligi yoki maqom yo'llariga mansub mumtoz musiqa ijrochiligida ham o'ziga xos ansamblli ijro an'analari yuzaga kelgan. Bizning davrimiz ansambl ijrochiligining yangi qirralarini ochish, o'tmish an'analari asosida zamonaviy shakllarni yaratish bilan bog'liq. Maqsad ham ma'naviy boyligimizni asrash, ularning mukammalligini o'zlashtirish va yangi talqinlarini yoshlar ongiga singdirishdan iborat.

Musiqiy merosni mukammal holda talqin etish albatta xonanda va sozandalardan saboq, bilim, malaka va mahorat talab etadi. Aynan ana shu jihatlarni, oliy ta'lim tizimida yoshlarga ulashib kelayotgan dargohda an'anaga munosib kelajak avlod tarbiyalanmoqda desak adashmagan boiamiz. Chunonchi, maqom xonandaligini egallashga kelgan yoshlar albatta jo'rovozlik, birgalikda ansambl bo'lib ijro etish malakalari bo'yicha ham saboq oladilar.

Maqom ijrochiligining o'ziga xos xususiyatlaridan biri jo'rovoz bo'lib ijro etishdir. Jo'rovozlik o'zbek musiqa ijrochiligining sehra boy jarayonlaridan biri sifatida amaliyotda qoilanilib kelingan. Odatda, ikki yoki undan ortiq ovozlarning, birgalikda, bir vaqtda ijro etishi juda murakkab jarayon hisoblanadi. Xonandalarning bir-biriga mos holda tarkiblash va asarni chiroyli talqiniga erishish uchun xonandalar bir qator tabiiy va amaliy jihatlarga ega bo'lishlari kerak boradi.

Jo'rovozlikning o'ziga xos xarakterli xususiyatlari mavjud ekanligi qayd etiladi. Har bir xonanda ijro etadigan asar nafas bilan bog'liq bo'lganligi bu jihatni ko'rsatib beradi. Ikki va undan ortiq xonandalarning nafas olishlari va talqinda nafasni bir-biriga mos holda qo'llashlari ahamiyatli ekanligini e'tirof etish lozimdir. Shuning uchun, xonandaning o'quv jarayoni, asarni o'zlashtirishi va mashq davri juda muhim hisoblanadi.

Bu borada xonanda, ayniqsa mumtoz musiqa xonandasi ustoz ko'rishi shart. Ta'lim jarayonida ham ustozlarning e'tibor beradigan tomonlari, xonandalarga xos jihatlari hisoblanadi. Chunki, tarbiyalash davrida ularning xonandalarga xos jihatlari, ayniqsa ovozlari egiluvchanlik, ta'sirchanlik va talqin etishga qodir bo'lishlari alohida ahamiyatga egadir. Aslida, ansambl ijrochiligi uchun xonandalardagi bu jihatlarning mutanosibliklari tanlab olinadi.

Ulug'bek Tarag'ayning «Musiqi ilmi haqida risola» kitobining «o'n ikki maqom zikrida» deb nomlangan bobida shunday fikrlar keltiriladi: «Xoja Abdulqodir ibn Adurahmon Marog'iy, Xoja Sayftdin Abdulmo'min, Sulton Uvays Jaloiylarning so'zlariga qaraganda, avvalda maqomlar yettita bo'lg'on: «Maqomi rost», «Maqomi Ushshoq», «Maqomi Navo», «Maqomi Rohoh», «Maqomi Xijoz», «Maqomi Iroq», «Maqomi Xusayniy»." Yana ushbu risolada ulug' bobomiz Ulug'bekning o'zi tanbur va nog'orani juda yaxshi chalganligini, «Bulujiy», «Shodiyona», «Axloqiy», «Tabriziy», «Usuli ravn», «Usuliy otlig'» singarikuyllarni ixtiro qilganligini ta'kidlab o'tadi. Bu fikrlarga suyangan holda, shuni aytish mumkinki, tarixiy sharoitda yangi ijro yo'llari sayqallangan ko'rinishlari bilan jilolanib kelgan. Keyinchalik xalqning etnik joylashishi, yashash sharoitlari, turmush tarziga qarab ularning turlicha madaniy rivojlanish davriga asoslanib har xil maqom yo'llari ham o'z o'rnini topganligi ehtimoldan xoli emas. Natijada XVIII asrga kelib

Buxoroning Shashmaqomi Buzruk, Rost, Navo, Dugoh, Segoh, Iroq maqomlari o'zining nasr va mushkulot qismlari bilan rivojlangan bo'Msa, Farg'onaning «Chor maqom»i «Dugoh Husayniy»ning yettita yo'li, «Chorgoh»ning oltita ijrochilik yoki, «Shaxnozi Gulyor»ning oltita ijrochilik yo'li hamda «Bayot» yo'llarining savti va taronalari bilan jilolanib, ijro etib kelingan. Xorazm maqomlarida ham olti maqom ijrosining alohida uslubiy va o'ziga xos yo'nalishini kuzatish mumkin. Bunda faqat keyinchalik yettinchi maqom sifatida chertim yo'lidagi «Panjgoh» maqomi kiritilgan.

An'anaviy musiqa xonandasining ijroviy imkoniyatlarida qanday jihatlari bo'lishi kerak, yoki bular nimadan iborat ekanligini ayrim tomonlari, bir qator professional ashula ijrochiligi amaliyotining uslubiyotida ta'rif etilgan kitoblarda o'z ifodasini topgan. Maqom yakka xonandaligining ikki turi mavjud: 1) havaskor yakka xonandalik; 2) profesional yakka xonandalik.

Havaskor yakka xonanda kuylashning dastlabki asoslarini o'zlashtirib, an'anaviy ashulalami (qo'shiqlari). Maqom ashula ijrochiligidagi bir hofizning aytish uslubi va uning aytgan ashula yo'li ikkinchisiga hech bir o'xshamaydi. Maqom ashula yo'llarini turli hofizlar hatto variantlar darajasida ijro etishlari mumkin. Chunki ularning har biri ashula yo'lini puxta va chiroyli ijro etishi uchun o'z ovozining imkoniyatlari doirasida unga ma'lum o'zgarishlar kiritadi. Bunda hofiz ovozining kuchi va baland pastligiga qarab ashulada mavjud bo'lgan kuy bo'laklarini qisqartirib yo'li ularga namudlar kabi qismlar kiritishi mumkin. Masalan, buxorolik hofizlar Qo'qon Ushshogiga Segoh, Ushshoq, Uzzol va Muhayyari Chorgox namudlarini qo'shib aytgan boisalar, Farg'ona vodiysida esa faqat Namudi Segoh bilan cheklaganlar. Tojikistonda unga hatto Zebo pari avjini ham qo'shib ijro etganlar. Ustozlar maqomlarni bir butun shaklda, boshidan oxirigacha yoki ularning ayrim sho'balarini ijro etib kelganlar.

So'nggi vaqtlarda maqom ashula yo'llari yakka-yakka holda ham ijro etib kelinmoqda. O'zbek ashula ijrochilik san'atida an'anaviy yakka xonandalik alohida o'rin tutadi. Maqomlarning eng qadimiy tarixi aslida tom ma'nodagi maqomlar tarixi bo'lmay, balki ko'proq ularning kelib chiqish manbalari bo'lgan ko'hnada davr musiqa kuy qatlamlariga dahldordir. Chunki bu ijrochilikda xonandaning bor iste'dodi, ijro mahorati va kasbiy tajribasi to'liq namoyon bo'ladi. Ayni paytda, an'anaviy yakka xonandalikda ijro uslublari umumxonandalik uslublarga asoslanadi. Biroq, yakka xonandalik ashula ijro (kuylash) uslublarni takomillashtirib borish imkoniyatlari kengligini eslatib o'tish joiz. Negaki "Xonandalik uslubi - bu vokal musiqa asarlarini ijro etish yo'li"dir. Shu sababli har bir yakkaxon ashula ijrochisi o'zining "Ijro yo'li"ni kashf etish, uni takomillashtirish va avlodlarga uzatish imkoniyatlariga egadir. An'anaviy yakka xonandalik san'ati" tushunchasining iborasi "bir tomondan meros qoldirish va ijtimoiy vorislikni, ikkinchi shuki, yakka xonandalik san'atida tajribali san'atkor (kuylovchi) o'zining ijro mahorati sirlarini yosh iste'dodli shaxsga uzatadi, bu yosh iste'dod yakka xonandalik asoslariga vorislikni qabul qiladi va ayni paytda, har bir yakkaxon xonanda bu san'atning zamon va makon talablariga mos ravishda rivojlanib borishini ta'minlaydi, bu an'anaviylikning navqironligidir (hamisha amalda bo'lishidir). Shu tariqa yakka xonandalik san'atida davomiylik ta'minlanadi.

Foydalangan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 17-noyabrda «O'zbek milliy maqom san'atini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi PQ- 3391-son qarori.
2. N.A.Muslimov "Innovatsion ta'lim texnologiyalari va pedagogik kompetentlik" o'quv-uslubiy majmua. Toshkent: 2016.
3. Rajabov I. Maqomlar masalasiga doir. Toshkent, 1963.
4. Rajabov Y. Shashmaqom, (I-VI); O'zbek xalq muzikasi.(I-V) Toshkent. 1965.
5. Yunusov R. Sharq xalqlari maqomlari T., 2022
6. E.Ro'zimatov "Yangi maqom namunalari" –Toshkent 2024.
7. N.Pirmatova "Zebo pari" –Toshkent 2022.